

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Chuboyeva Ozodaxon Quvonchbekovna

Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti dots.v.b

Nabijonova Dilafruz Abdujalil qizi

Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada korrupsiyaga qarshi kurashish uchun O'zbekistonda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va ularning huquqiy muhofazasi keltirib o'tilgan. Korrupsiya sodir etilishini oldini olish uchun qonunda belgilab qo'yilgan normalar hamda ularning tahlili yoritilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, maishiy korrupsiya, biznesdagi korrupsiya, hokimyatdagi korrupsiya, kompleks chora-tadbirlar, "Halollik vaksinasi", komplayens-nazorat, E-Anticor.uz, Transparency International xalqaro tashkiloti.

Annotation: this article cites the measures implemented in Uzbekistan to combat corruption and their legal protection. To prevent corruption, the norms laid out in the law and their analysis are covered.

Keywords: corruption, domestic corrup, corruption in business, corruption in power, comprehensive measures, "integrity vaccine", complayens-control, E-Anticor.uz, Transparency International.

Аннотация: В этой статье перечислены меры, принимаемые в Узбекистане для борьбы с коррупцией, и их правовая защита. Освещены нормы, установленные законом для предотвращения коррупции, а также их анализ.

Ключевые слова: коррупция, коррупция в быту, коррупция в бизнесе, коррупция во власти, комплексные меры, "вакцина честности", комплаенс-контроль, E-Anticor.uz, международная организация Transparency International.

KIRISH.

Bugungi kunda korrupsiya muammosiga jahonning deyarli har bir mamlakatida duch kelish mumkin. Korrupsiya so'nggi yillarda xalqaro miqyosda transmilliy jinoyat sifatida tomonidan keng muhokama qilinayotgan mavzulardan biridir. Ta'kidlash lozimki, korrupsiya keltiradigan zarar barcha davlatlar uchun teng sanalib, mazkur illat davlatning turli sohalariga, xususan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga hamda mamlakatning xalqaro maydondagi imidji va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

"Korrupsiya" atamasi "lotincha "corruptio" so'zidan olingan bo'lib, "aynish, poraga sotilish" degan ma'noni anglatadigan[1]. Qonunda ta'kidlanishicha, "korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish"[2] hisoblanadi. Korrupsiyaning quyidagi turlari mavjud:

Maishiy korrupsiya - davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida fuqarolar va davlat xizmatchilari o'rtasida vujudga keladigan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik.

Biznesdagi korrupsiya - tadbirkorlar va davlat xizmatchilari o'rtasida vujudga keladigan munosabatlardagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar kiradi.

Hokimiyatdagi korrupsiya - davlat hokimiyat organlarida mansabdor shaxslar tomonidan sodir qilinadigan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik kiradi.

METODLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi"[3].

O'zbekiston xalqaro normalardan 2008 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi, shuningdek, 2010 yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Istanbul Harakat rejasini ratifikatsiya qilgan.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiya omillarini keltirib chiqarayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliy hayotga tatbiq etilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-sonli "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni qabul qilinib, mazkur farmon asosida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida *Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi* tashkil etildi.

Shuningdek, mazkur Farmon asosida quyidagi chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish belgilanligi ahamiyatlidir, xususan:

- 2020-2021 yillarda barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi ("komplayens-nazorat") ni bosqichma-bosqich joriy etish;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyati, shuningdek ushbu sohadagi davlat va boshqa dasturlar samaradorligini monitoring qilish hamda baholash imkonini beruvchi E-Anticor.uz elektron platformasini joriy etish;
- korrupsiya holatlari haqida xabardor qilish imkonini beruvchi maxsus mobil dasturiy ta'minotni joriy etish[4].

Korrupsiyaga qarshi komplayens nazorati - davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etuvchi, korrupsiya

xavf-xatarlari, manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va chek qo'yish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berishni o'zida mujassam etgan profilaktik tizimdir.

Sohada amalga oshirilayotgan ushbu mazmundagi islohotlarning natijasi sifatida *Transparency International* xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan har yili e'lon qilib boriladigan *“Korrupsiyani qabul qilish indeksi”* da O'zbekiston 180 ta davlat orasida 2017 yilda 157-o'rin, 2018 yilda esa 158-o'rinni egallagan bo'lsa, 2019 yilda 25 ball bilan 153-o'rinni egallab, 5 pog'onaga ko'tarildi[5].

NATIJALAR

Korrupsiya jinoyati nafaqat xufyona, balki korrupsiyaga doir munosabatlarga kirishgan tomonlarning o'zaro kelishuviga binoan ochiq tarzda ham sodir etilishi mumkin. Aksariyat hollarda u tegishli hokimiyat organlariga shikoyat berilishiga sabab bo'lmaydi, chunki g'ayriqonuniy kelishuvdan har ikkala tomon ham naf ko'radi. Hattoki, jabrlanuvchilar pora so'ragan mansabdorlar ustidan ham kamdan-kam holda shikoyat qiladi. Chunki, odamlar korrupsiyaga qarshi kurash jarayonini samara berishiga unchalik ishonmaydi. Ushbu muammoni hal qilish maqsadida 2017-yil 3-yanvarda O'zbekiston Respublikasining *“Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida”* qonuni ishlab chiqildi. Unga ko'ra, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi axborotni xabar qiluvchi shaxslar va ularning yaqin qarindoshlari davlat himoyasida ekanligi belgilanib, ularni rag'batlantirish tartibi Vazirlar mahkamasi tomonidan tartibga solinishi keltirib qo'yilgan.

Bundan tashqari, ushbu qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari va ularning vakolatlari belgilab berilgan bo'lib, ular quyidagilar:

- ✓ O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti[6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev bejizga *“Korrupsiyaga toqatsizlik hayotimiz bir qismiga aylanishi kerak”*[7] deb ta'kidlamaganlar. Shuning uchun, davlat organlari va boshqa tashkilotlar korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir tushuntirish ishlarini amalga oshirish, huquqiy tarbiya va ta'limni, ilmiy-amaliy tadbirlarni tashkil etish, o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlarni ishlab chiqish yo'li bilan zarur chora-tadbirlar ko'rilmogda. Endi, davlat organlari va boshqa tashkilotlar o'z mansabdor shaxslarining hamda boshqa xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy savodxonligini, shu jumladan huquqiy bilimlari darajasini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rishi shartligi qonun bilan tasdiqlandi.

Bundan tashqari, ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya belgilangan davlat ta'lim standartlariga muvofiq amalga oshiriladigan bo'ldi. Davlat ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari korrupsiyaga qarshi

kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim va tarbiyaga, mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning sifatini oshirishga, ta'lim dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishi qonunda belgilab qo'yildi.

MUHOKAMA

2017-yil 3-yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida" qonunida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagicha belgilab qo'yilgan:

- ✓ Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar
- ✓ Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar
- ✓ Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar
- ✓ Ma'muriy tartib-taomillar sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar
- ✓ Davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar[9].

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularga chek qo'yish uchun korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarliligi prinsipini ta'minlash juda muhim hisoblanadi. Quyidagi harakatlarni amalga oshirish orqali korrupsiya sodir etilishini kamaytirishga erishimiz mumkin;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlarining korrupsiyaning holatini va tendensiyalarini tizimli tahlil qilishga asoslangan samarali ishini tashkil etish, ularning faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashning zamonaviy shakllari va usullaridan foydalanish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning texnik ta'minoti darajasini oshirish, ularning ishiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

sudlarning mustaqilligi va erkinligini, ular faoliyatining ochiqqligini ta'minlash;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari o'rtasida muvofiqlashtirishni va hamkorlikni ta'minlash;

jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlariga doir murojaatlari to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqilishini ta'minlash;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot bergan shaxslarning himoya qilinishini ta'minlash;

korrupsiyaga qarshi kurashning samarali jinoyat-huquqiy va jinoyat-protsessual mexanizmlarini yaratish[10].

XULOSA

Agar biz Yangi O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha shaxslarni "Halollik vaksinasi" bilan emlasak va ushbu vaksinasi bilan emlagan yoshlarni tarbiyalasak, "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan maqsadlarimiz, ya'ni "Transparency International" xalqaro tashkiloti tomonidan e'lon qilinadigan Korrupsiyani qabul qilish indeksida kamida 50

pog'onaga ko'tarilishga hamda 100 foiz normativ-huquqiy hujjatlarning “*korrupsiyadan xoli qonunchilik*” tamoyili asosida ishlab chiqilishini ta'minlashga erishamiz[10].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Korrupsiya>
2. O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni, 03.01.2017 yildagi O'RQ-419-son, 3-modda.
3. <https://ombudsman.uz/oz/docs/ozbekistonda-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-sohasida-davlat-siyosatini-takomillashtirish-masalalari>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni, 29.06.2020 yildagi PF-6013-son.
5. <https://ombudsman.uz/oz/docs/ozbekistonda-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-sohasida-davlat-siyosatini-takomillashtirish-masalalari>
6. O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni, 03.01.2017 yildagi O'RQ-419-son, 7-modda.
7. <https://daryo.uz/>
8. O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni, 03.01.2017 yildagi O'RQ-419-son, 4-bob, 19-23-moddalar.
9. O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni, 03.01.2017 yildagi O'RQ-419-son, 25-modda.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida” Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son, 89-maqсад.
11. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. INSON HUQUQLARI XALQARO STANDARTLARI VA MILLIY GENDER MASALALARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 33-SON 20.10.2024. 166-170-betlar.
12. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Oila mustahkamligini ta'minlashda ota, ona, farzandlar tarbiyasi o'rni. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-7 ISSUE-10 (30- October) 44-50. VOLUME 7, ISSUE 10 (30- OCTOBER)
13. Quvonchbekovna, O. C. The importance of “Kazilik adabi” in Abu Bakr Kasani's work “Badoi-us-sanoe”. *International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA*, (01).
14. Чубоева, О. НИГИЛИЗМ-ХУҚУҚИЙ ОНГ, ДЕМОКРАТИК ДАВЛАТНИНГ ТАРАҚҚИЁТ ЙЎЛИДАГИ ХАВФЛИ ОМИЛИ. In *TURKEY International scientific-online conference: "THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH* (No. 1 Part 5).
15. Чубоева, О. О „ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TAMINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS/2022-PART, 10*.

16. Чубоева, О. Янги Ўзбекистон-III ренессансида хотин-қизлар ижтимоий ҳимояси. a collection scientific works of the International scientific conference (15 May, 2022)-Copenhagen: 2022.
17. Ozodaxon, C. (2022). Chuboyeva Gulnora. OILA QONUNCHILIGIDA TENGLIK TAMOIYILI. JODKOR O 'QITUVCHI JURNALI. 5 NOYABR.
18. Чубоева, О. К. (2017). Правовая культура населения. *Молодой ученый*, (19), 250-253.
19. Чубоева, О., & Хусайнов, Р. (2023). ТАЪЛИМ ИСЛОХОТЛАРИ-ДАВР ТАЛАБИ. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(1), 12-16.
20. Ozodaxon, C. (2022). YOSHLARNING HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATINI OSHIRISH. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 1(11), 17-21.
21. Chuboyeva, O., & Abdug'aniyev, T. (2022, November). KORPORATIV NORMA NAZARIYASI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 8, pp. 97-101).
22. Ozodaxon, C., & Dilshod, A. (2022). INSON ERKINLIGI HUQUQIY ASOSI-KONSTITUTSIYA. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(3), 47-50.
23. Ozodakhon, C. (2022). New Uzbekistan: Administrative Management Reform. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 9, 123-125.
24. Kuvonbekovna, C. O. (2024). OILA MUQADDASLIGI HUQUQIY ASOSLARI. *PEDAGOG*, 7(2), 194-198.
25. Саидисаков, С. С. (2024). ТИЛ БИЛМОҚ-ЭЛ БИЛМОҚДИР. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 7(2), 191-194.
26. Chuboyeva, O., & Qahhorov, R. (2023). JINOYAT HUQUQIDA DALILLAR MAQBULLIGI AYRIM MASALALARI. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (9), 240-243.
27. Chuboyeva, O., & Toshmuhammedov, D. (2023). YANGI TAHRIRDA QABUL QILINGAN OZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI–YANGI OZBEKISTON POYDEVORI. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 813-816.
28. Чубоева, Г. (2022). ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИК-ҲУҚУҚИЙ ТАРАҚҚИЁТНИНГ ОМИЛИ. *ЎЗБЕКИСТОН О'ҚИТУВЧИ*, 2(23), 358-362.
29. Ozodaxon, C., & Gulnora, C. (2022). OILA QONUNCHILIGIDA TENGLIK TAMOIYILI. *ЎЗБЕКИСТОН О'ҚИТУВЧИ*, 2(23), 354-357.
30. Chuboyeva, O. (2021, March). THE STATE OF THE JADIDISM MOVEMENT IS DEVELOPING POSITION. In *Конференции*.
31. Chubayeva, O. (2020). IN “BADOI-US SANOIJ” OBJECTIVES OF SCIENTIFIC PROBLEMS. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(3), 248-254.

32. Chuboeva, O. (2020). THE IMPORTANCE OF KAZILIK ADABI IN ABU BAKR KASANIS WORK BADOI-US-SANOE. *Theoretical & Applied Science*, (1), 800-803.